

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



**TASAVVUF SHUNOSLIK ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lif sohasi: 220000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik: 70220503 – Tasavvuf germenevitikasi

TOSHKENT – 2022

ОБРАЗОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ
СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО УРОВНЯ
ДЛЯ ПОДДЕРЖКИ АДАПТАЦИИ
ДО СОЦИАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА

Социальная
адаптация

Социальная адаптация

Социальная адаптация
и социальное развитие

Социальная адаптация и социальное
развитие - социаль-
но-экономическое пространство

Социальная
адаптация
и социальное
развитие

София

София
Мария

Fan/modul kodi TVA1104	O'quv yili 2022-2023	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus	Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)
	“Tasavvufshunoslik asoslari”	48	72

2. I. Fanning mazmuni

“Tasavvufshunoslik asoslari” fanining asosiy maqsad va vazifalari Tasavvuf ta'lomitining asosiy tushunchalari haqida bilim va tasavvurga ega bo'lish va ushbu ta'lomit bilan bog'liq barcha masalalarga ilmiy-falsafiy yondashishdan iborat.

Musulmon Sharqidagi falsafiy fikr taraqqiyotini tasavvuf ta'lomi tarkibidagi irfon falsafasidan xoli holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, o'n ikki asrlik tarixga ega bo'lgan tasavvuf ta'lomi Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining madaniy-ma'naviy hayatida chuqur iz qoldirgan.

Tasavvuf ta'lomitini tushunish va tushuntirishda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy sohalardagi progress va regress hodisalarining mag'zini ilmiy-falsafiy umumlashtirishga harakat qilgan mutafakkirlarning g'oyalalarini, fikrmulohazalari dinamikasini o'rganish “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining maqsad va vazifalarini anglashga qanchalik yordam beradi? Bu kabi savollarga tasavvuf germenevtikasi nomi bilan kiritilayotgan ushbu o'quv fani orqali ilk tizimi ma'lumotlarni berish ko'zda tutiladi. Qolaversa, Sharq falsafasi va madaniyatni, tarixshunoslik va manbashunoslik yo'nalishlari bo'yicha tayyorlanayotgan kadrlarning bugungi avlodni uchun bu ma'lumotlar o'ta muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, tasavvuf germenevtikasi Islom dini va islom falsafiy tafakkurini o'rganishning *eng optimal va ob'ektiv yo'llarini belgilashga, bu masalalarda o'tmishdagi xatolarni takrorlamaslikka xizmat qiladi*.

“Tasavvufshunoslik asoslari” fanining sharqshunos-faylasuflar, tarixchilar, filologlar va manbashunos mutaxassislar tayyorlanayotgan Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida joriy qilinishi birinchi galda bu fanning zarurligini belgilaydi. Zero, bu fan talabalarining Sharq va qo'shimcha ravishda, G'arb tillarini bilishlari tufayli samarali yo'lga qo'yilish imkoniga ega.

Bo'lajak faylasuf va tarixchi-manbashunos mutaxassislarni

- Tasavvuf ta'lomitining asosiy masala va tushunchalari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- falsafiy metod va metodologiyalar rivojlanishidagi asosiy bosqichlarga oid ma'lumotga ega bo'lish;
- irfoniy tafakkurning o'ziga xosligi va tamoyillari, fanlararo yondashishdan foydalanish;
- Tasavvuf ta'lomitining umuminsoniy va ma'rifiy mohiyatini tadqiq etish va ochib berish;
- Tasavvuf ta'lomitining ma'naviy-axloqiy jihatlarini zamonaviy tadqiqot usullari

- vositasida tahlil qilish;
- tasavvuf ta'limotini bilishda ob'ektiv metodologik yondoshuv malakalarini hosil qilish;
 - mustaqil fikrlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini hosil qilish;
 - tasavvufiy asarlarni tahlil qilish orqali falsafiy tafakkurni shakllantirishning nazariy asoslarni ishlab chiqish
- “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining asosiy vazifalarini tashkil etadi.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining maqsad va vazifalari

“Tasavvufshunoslik asoslari” – Tasavvufshunoslikka kirish fani. “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining maqsad va vazifalari. Tasavvuf va Irfon falsafasi haqida umumiy ma'lumotlar berish va ushbu ta'limot haqida tasavvur hosil qilish – “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining asosiy maqsadi. Tasavvuf ilmiga oid asosiy tushunchalar. Tasavvuf haqida birlamchi ma'lumotlar berish. Talabalarda Tasavvuf ilmining insonparvarlik mohiyatini, uning falsafiy fikr va badiiy adabiyot rivojida tutgan o'rmini tushuntirib berish – “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining asosiy vazifasi. Tasavvufshunoslik ob'ekti – Tasavvuf ta'limoti.

2-mavzu: Tasavvufshunoslik fanining tarkibiy qismlari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Tasavvufshunoslik fanining tarkibiy qismlari: Tasavvuf tarixi, Tasavvuf falsafasi, Tasavvuf falsafasi germenevtikasi, Tasavvuf adabiyoti, Tasavvuf adabiyoti germenevtikasi, Qiyoziy tasavvufshunoslik, Tasavvuf teologiyasi, Tasavvuf etikasi, Tasavvuf estetikasi, Tasavvuf psixologiyasi. Ularning maqsad va vazifalari, o'zaro aloqadorligi, umumi jihatlari va xususiy farqlari.

Tasavvufshunoslik fanining Tafsir, Hadis, Fiqh, Kalom ilmlari bilan aloqadorligi. Tasavvufshunoslik fanining falsafa, dinshunoslik, ta'rix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, psixologiya, axloq va estetika fanlari bilan aloqadorligi.

3-mavzu: Tasavvufshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi. Mumtoz Tasavvufshunoslik maktablari. Zamonaviy tasavvufshunoslik

“Tasavvuf ilmi” va “tasavvuf ta'limoti” tushunchalari. Uning umumiy qurilishiga berilgan ta'riflar (ilm, tariqat, mazhab, muktab, maslak, ta'limot...).

Hakim at-Termiziy, Abu Ishoq Kalobodiy, Mustamliy Buxoriy, Abulqosim Qushayriy, Sullamiy, Hujviriy, G'azzoliy, Xoja Yusuf Hamadoniy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy, Shayx Farididdin Attor, Shayx Ibn al-Arabiyy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy, Mavlono Jomiy, Alisher Navoiy, Imom Rabboniy, Mirzo Bedilning Tasavvufshunoslik ilmi rivojidagi o'rni.

Xuroson va Movarounnahr tasavvufshunoslik maktabi – yagona ma’naviy mintaqasi mahsuli. Xuroson va Movarounnahr tasavvufidagi maktablar: Balx maktabi. Ibrohim Adham. Termiz maktabi. Hakim Termizi. Buxoro maktabi. Kalobodiy va Mustamliy Buxoriy. G’aznin maktabi. Sanoiy G’aznaviy. Nishapur maktabi. Shayx Farididdin Attor.

Hindiston tasavvuf maktabi – Xuroson va Movarounnahr tasavvuf maktabining izdoshi. Hindistonda Haqshbandiya tariqati. Ahmad Sarhindiy (Imom Rabboniy) va uning Mujaddidiya shu’basi. Hindistonda Qalandariya va Malomatiya tariqatlari. *Arabiston yarim oroli va Iroq tasavvufi*. Makka maktabi. Basra maktabi. Bag’dod maktabi.

Vizantiya va Ispaniya tasavvufi. Shayx ul-Akbar Muhyiddin ibn al-Arabiyning irfoniy ta’limoti.

Tasavvuf maktablari o’rtasidagi umumiylig va o’ziga xosliklar.

Zamonaviy tasavvufshunoslik maktablari. Evropa tasavvufshunoslik maktablari.

O’zbekistonda zamonaviy tasavvufshunoslik maktabi (mustaqillik davri). Eron, Misr, Tojikiston va Turkiyada zamonaviy tasavvufshunoslik maktablari.

4-mavzu: Tasavvuf va Irfon

“Tasavvuf” va “Irfon” tushunchalari. “Tasavvuf” va “so’fiy” so‘zlarining kelib chiqishi. “Tasavvuf” istilohining ta’rifi. “So’fiy” istilohining ta’rifi. “So’fiy” so‘zidan yasalgan boshqa istilohlar (“so’fiya”, “mutasavvif”, “mutasavifa”, “mustasvif”)ning sharhi. “So’fiy” va “darvesh” tushunchalari. Tasavvuf namoyandalarining ushbu istilohlarga bergan ta’riflari. Ushbu istilohlarning turli diniy va ilmiy maktablar tomonidan berilgan ta’riflari. Tasavvuf – ushbu ta’limotning umumiyligi nomi.

“Irfon”, “ma’rifat”, “orif” so‘zlarining lug’aviy ma’nosи. “Irfon” istilohining ta’rifi. “Orif” istilohining ta’rifi. “So’fiy” va “orif” o’rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili. Tasavvuf namoyandalarining ushbu istilohlarga bergan ta’riflari. Ushbu istilohlarning turli diniy va ilmiy maktablar tomonidan berilgan ta’riflari. Tasavvuf va irfon tushunchalari o’rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili. Irfon – Tasavvuf ta’limoti ichidagi falsafiy jarayon ekanligi. Irfon falsafasi – Tasavvuf ta’limotining asosi, yoki o’zagi ekanligi.

5-mavzu: Shariat va Tariqat

“Shariat” so‘zining sharhi. “Tariqat” so‘zining sharhi. Shariat – Islom dini ahkomlari majmuasi. Tariqat – Tasavvuf ta’limotining ikkinchi nomi. Shariat va Tariqat o’rtasidagi munosabatlar. Shariat va tariqat ahli o’rtasidagi g‘oyaviy kurashlar. Tasavvuf ahlining “hol ahli”, “botin ahli”, “ishq ahli”, “Haq ahli” deb atalishi. Tasavvuf ahli tomonidan shariat ahlining “zohir ahli”, ilm ahlining “qol ahli”, deb qaralishi.

Xoja Abdulloh Ansoriy va Shayx Aziziddin Hasafiyning shariat va tariqat tushunchalariga bergan ta’riflari. Kalobodiy va Mustamliy – shariat va tariqat o’rtasidagi ilk murosakorlar. Imom G’azzoliyning shariat va tariqat o’rtasida murosani yuzaga keltirishdagи o’rnи.

Tasavvuf ta’limotida *Shariat bosqichi*: Qur’oni karim va Payg’ambar Muhammad (sav) Sunnatiga ergashish. Farz va sunnat amallarni qat’iy bajarish. Shariat qonunlariga

qat'iy amal qilish.

Tariqat bosqichi: murid tushish, murshiddan vazifa va ko'rsatmalar olish, sayru sulukka kirishish, vazifalarni bajarish, xonaqoh odobiga rioyat qilish, nafsi ammora bilan kurashish, holot va maqomotlarni o'tkazish.

6-mavzu: “Ma’rifat” va “Haqiqat”

“Ma’rifat” va “Haqiqat” tushunchalarining sharhi. Tasavvufda ma’naviy-ruhiy kamolot bosqichlari: Ma’rifat va Haqiqat. Ma’rifat bosqichi: “Ma’rifat” tushunchasining sharhi. So‘fiylikdan oriflikka intilish, o’zlikni anglash, Haqni anglash, irfon maqomiga erishish. Haqiqat bosqichi: “Haqiqat” tushunchasining sharhi. O’zlikdan kechish. Haqni topish, Haqqa taslim bo‘lish. Haqqa etishish.

7-mavzu: “Sukr” va “Sahv” tushunchalari

“Sukr” va “Sahv” tushunchalari ma’nosи. Tasavvufda “Sukr” va “Sahv” yo‘nalishlari. Boyazid Bistomiya va uning “Sukr” – mastlik yo‘nalishi. Sukr yo‘nalishida “vajd” va “jazba” holatlari. Sukr yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari. Boyazid Bistomiya, Mansur Halloj, Robiya Basriy, Aynulquzzot Hamadoniy, Hasimiy, Boborahim Mashrab – Sukr yo‘nalishi namoyandalari.

Junayd Bag‘dodiy va uning “Sahv” – hushyorlik yo‘nalishi. Sahv yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari. Sahv yo‘nalishida Qur’on va Sunnatga qat’iy rioya qilish tamoyili. Junayd Bag‘dodiyning bu haqdagi ko‘rsatmalar. Xojagon-Haqshbandiya tariqati – Sahv yo‘nalishiga asoslangan ta’limot. Shayx Abo’said Abulkayr, Xoja Abdulloh Ansoriy, Imom Muhammad G‘azzoliy, Mavlono Abdurahmon Jomiy, So‘fi Allohyor – Sahv yo‘nalishi namoyandalari.

Tasavvufda “Sukr” yo‘nalishining “Sahv” yo‘nalishi namoyandalari tomonidan rad etilishi.

8-mavzu: Tariqat va silsila

Tariqat – Tasavvuf ta’limotidagi muayyan bir yo‘nalish yoki maktab sifatida. Tasavvuf ta’limoti tarkibidagi mash‘hur tariqatlar. Har bir tasavvufiy tariqatning ma’naviy yaqinlik jihatidan silsilaga bog‘lanishi. “Silsila” – muayyan bir tariqatning ma’naviy-ruhiy bog‘lanishi. Xojagon-Naqshbandiya tariqatining silsilasi.

9-mavzu: Xonaqoh odobi. Nafs tarbiyasi

“Xonaqoh” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. Xonaqoh odobi (xonaqoh institutining axloq kodeksi). Xilvat va chilla o’tirish (go‘shanishinlik).

“Pir” – “murshid” – “shayx” istilohlarining sharhi. Pir (murshid, shayx)ning vazifasi. Pir (murshid, shayx)ning sifat va alomatlari. Pir(murshid)ning murid tanlash va muridni sinovdan o’tkazish usullari. Tavajjuh (Pirning muridga qaratilgan diqqat-e’tibori).

“Xirqa” so‘zi va istilohining sharhi. Xirqaning turlari: irodat xirqasi; tabarruk

(intisob, nisbat) xirqa. Xirqa kiyish odobi (tartibi). Xirqa kiyishning mazmun-mohiyati. Xirqa yondirish sababi.

“Murid” istilohining sharhi. Murid (solik)ning vazifalari. Sidq va ixlos (Muridning Pirga bo‘lgan hurmat va muhabbat). Xizmat (Muridning Pir tomonidan berilgan vazifalarni bekam-ko‘st bajarishi).

Xonaqohda zikr talqini. Zikrning turlari: “zikri xafiy” va “zikri jahriy” sharhi. Qodiriya, Mavlaviya va Yassaviya tariqatlarida zikri jahriy. Xojagon-Haqshbandiya tariqatida zikri xafiy.

Tasavvufda “Nafs tarbiyasi” (tazkiyat un-nafs) masalasi. Pirning murid nafsini tarbiyalashdagi o‘rni.

10-mavzu: Tasavvufda “Holot”

Ma’naviy-ruhiy safar: sayru suluk. Sayru suluk – so‘fiy yo‘li. Nafsni tarbiyalash va qalbni poklash – sayru sulukning asosiy sharti.

Solik (murid)da sayru suluk jarayonida yuz beradigan holatlar (holot). Holotning asosiy kategoriyalari: muroqaba, qurb, muhabbat, xavf, rajo, shavq, uns, itminon, mushohada, yaqin. Holotning o‘zgaruvchanligi. Holot – solik ruhiyatida vujudga keladigan va ma’lum vaqtgacha davom etadigan ruhiy hodisa. Kubraviya tariqatining “Latoyif” nazariyasida ranglar va solik ruhiyatidagi o‘zgarishlar. “Holot” – Tasavvuf ta’limotining o‘ziga xos psixologiyasi.

11-mavzu: Tasavvufda “Maqomot”

“Maqom” va “maqomot” istilohlarining sharhi. Etti maqom: tavba, vara’, zuhd, faqr, sabr, tavakkul, rizo. Maqomlar sonining turli tasavvufiy tariqatlarda turlicha ko‘rsatilishi. “Maqomot”ning muayyan davrgacha davomiyligi. “Holot” va “Maqomot” – Tasavvuf ta’limotining o‘ziga xos psixologiyasi.

12-mavzu: Valoyat va Karomat

Tasavvufda “Valoyat” tushunchasi. “Valiy” va “avliyo”. Hakim at-Termiziyning “Valoyat” nazariyasi. Karomat. “Karomat”ning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari. Karomatning mohiyati. Karomatning avliyo tomonidan sodir bo‘lishi.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tasavvufshunoslik faniga kirish. Tasavvufshunoslik fanining tarkibiy qismlari.
2. “Tasavvufshunoslik asoslari” fanining maqsad va vazifalari.
3. “Tasavvuf”, “so‘fiy”, “irfon” va “orif” tushunchalari.
4. Tasavvufshunoslik fanining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari.

5. Shariat va tariqat. “Shariat” va “tariqat” tushunchalari.
6. Tasavvuf va islom dinidagi yo‘nalishlar, fiqhiy va aqidaviy mazhablar.
7. Tasavvuf ta’limotining g‘oyaviy yo‘nalishlari: “Sukr” va “sahv”.
8. Tasavvufning islom dini tomonidan rad etilgan g‘oyalari va tamoyillari.
9. Tariqat: maslakdosh so‘fiylar jamoasi (xonaqoh instituti).
10. Tasavvufning tariqat (silsila)lar va maktablarga bo‘linishi.
11. Tasavvufda ma‘naviy-ruhiy kamolot bosqichlari: shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat.
12. Sayru suluk jarayoni: Maqomot (manzillar) va Holot.
13. Tasavvufda “ishq” va “muhabbat” talqini. “Ilohiy ishq” tushunchasi.
14. Hakim at-Termiziyy ta’limoti – tasavvufdagil ilmiy-nazariy maktab
15. Xojagon-Haqshbandiya ta’limotining nazariy asoslari.

Amaliy darslarni uysushtirish bo‘yicha kafedraning professor va o‘qituvchilarini tomonidan ko‘rsatma va yo‘llanmalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma’ruza darslarida olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanmalar, dars yo‘riqlari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, mavzular bo‘yicha taqdimotlar va ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Magistrant mustaqil ishining asosiy maqsadi – o‘qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlanтирish.

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko‘rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlaridan kurs mavzularini o‘rganish;
- xat, hujjat, yozishmaga oid mavzularni o‘zlashtirish;
- shartnoma tuzish, muzokara olib borish, yuqori darajadagi suhbatlarda ishtirok etish.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Tasavvufshunoslik – ilohiyotshunoslik va falsafa oralig‘idagi fan sifatida.
2. Tasavvuf ta’limotida “Maqomot”.
3. Tasavvuf ta’limotida “Holot”.
4. Attor va Havoiyda “Etti vodiy” tushunchasi.
5. Tasavvuf ta’limotida “qol” va “hol” tushunchalari.
6. Alisher Havoiy ijodida tasavvuf g‘oyalari.
7. Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”ida tasavvufiy g‘oyalar.
8. Irfon – tasavvufning bilish falsafasi.
9. Tasavvufda “Sukr va “Sahv” yo‘nalishlari.
10. Buxoro tasavvuf maktabi (Kalobodiy va Mustamliy).
11. Tasavvufda “Zikri xafiy” va “Zikri jahriy” amallari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar, ijodiy ishlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Fan bo'yicha kurs ishi. Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida

Magistrant:

- “Tasavvufshunoslik asoslari” fani bilan bog’liq bo‘lgan turli xil ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida *tasavvur va bilinga ega bo‘lishi* va ular haqida aniq *fikrlay olishi;*
 - yirik faylasuf va tasavvufshunos olimlarining g’oya va konsepsiyalari bilan *tanishgan bo‘lishi;*
 - Tasavvuf ta’limotining asoslarini tushuntirib berishda falsafiy metodlardan *foydalana olishi;*
 - Markaziy Osiyo mintaqasi falsafiy-irfoniy tafakkurini yoritgan manbalar, xususan, tasavvuf falsafasiga oid manbalarni bilish, tarjima va tahlil qila olish *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;*
 - ushbu fandan olgan bilimini amaliyatda tatbiq eta bilishi, manbalarda aksini topgan tasavvuf ga oid asarlarni to‘g’ri tarjima va tahlil qila olish, ulardan o‘zi uchun foydalı xulosalar chiqara olishi, olgan bilimini ta’lim jarayoniga joriy qila olish *malakalariga ega bo‘lishi lozim.*

4. VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

- ma’ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;

5. VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g’ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6. VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdulloyev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Termiz, 2007.
2. Juzjoniy A.Sh. Tasavvuf va inson. – T.: “Adolat”, 2001. .2
3. Komilov, Najmiddin. Najmiddin Kubro. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995.

4. Komilov, Najmiddin. Tasavvuf. – T.: “Movarounnahr”, “O’zbekiston”, 2009.
5. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Ichingdagi ichingdadir. / Tarj. U.Hamdam. – T.: “Yozuvchi”, 1997.
6. Turar, Usmon. Tasavvuf tarixi. / Turk tilidan Nodirxon Hasan tarjimasi. – T.: “Istiqlol”, 1999.
7. Xolmo’mnov, Ja’far. Jomiy va vahdat ul-vujud ta’limoti. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
8. Xolmo’mnov, Ja’far. Xoja Muhammad Porso Buxoriy. Hayoti va falsafiy-irfoniy merozi. – T.: “Tafakkur tomchilar”, 2020.
9. Xolmo’mnov, Ja’far. Tasavvuf falsafasi. 1-qism: Tasavvuf ontologiyasi. O’quv qo’llanma. – T.: “Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti”, “Yosh avlod matbaa”, 2021. – 276 b.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. “Tanjidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. –T.: “O’zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. –T.: “O’zbekiston”, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. - 488 b.

Axborot manbalari:

1. islom.uz
2. muslim.uz
3. ziyoruz.com

7. O’quv dasturi “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022_ yil “___” _____ dagi “___” -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O’quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022_- yil “30” 06 dagi “11” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas’ul:

Xolmo’mnov Ja’far Muhammadiyevich – TDSHU “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc).

Taqrizchilar:

Mirsodiq Is’hoqov – tarix fanlari doktori, professor, TDSHU, “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasi mudiri;
Ozodbek Xomutaliyev – TDSHU, “Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.